

Yozgi matematika maktabi onlayn darsi o'tkazildi

O'zR FA Matematika instituti olimlari tashabbusi bilan talabalar va yosh olimlar uchun 2020-yil 16-iyulida "O'yinlar nazariyasiga kirish" mavzusida Yozgi matematika maktabi onlayn darsi tashkil etildi.

Unda respublika oliy talim muassasalari professor-o`qituvchilari hamda iqtidorli talabalar va Matematika instituti jamoasi ishtirok etdi. Bugungi onlayn darsda akademik Abdulla A'zamov "Differensial o'yinlar uchun uch yondashuv: elementar yondashuv" mavzusida ma'ruza qildi. Onlayn dars davomida sohaga oid zamonaviy muammolar muhokama qilindi va o'zaro tajriba almashildi.

